



IJTIMOIIY ADOLAT PRINSIPLARINING QAROR TOPISHI – SHAXS SIYOSIY IJTIMOIIYLASHUVINING MUHIM SHARTI

Maxmudov Izzatillo Ne'matilloevich

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada siyosiy yetuk shaxsni shakllantirishda ijtimoiy adolatning ahamiyati ilmiy tahlil qilinib, unda adolat tushunchasining qadimiy davrlardan boshlab turli madaniyat va dinlarda shakllanish jarayonlari o'rganilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy va Amir Temur misolida adolatning jamiyat tartibi, fazilatli shahar va idora tizimlaridagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, adolatning nafaqat qonun va siyosiy institutlar orqali, balki ma'naviy-axloqiy asoslar bilan mustahkamlanishi, fuqarolarning faolligi va jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy adolat, jamiyat, taraqqiyot, ta'limot, ma'rifat, ezgulik, axloq, tarbiya, demokratiya.*

Siyosiy yetuk shaxsni shakllantirishda ijtimoiy adolat muhim shart-sharoit vazifasini o'taydi. Boshqacha aytganimizda, jamiyatda ijtimoiy adolat prinsiplariga rioya qilinganidagina zamon talablariga javob beruvchi, siyosiy yetuk shaxsni shakllantirish imkoni yaratiladi. Shu boisdan, "adolat g'oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmog'i lozim" [1]. Adolat haqidagi ilk tasavvurlarning vujudga kelishi mehnat taqsimoti va xususiy mulkchilikning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Biroq jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq adolat g'oyalarining yuzaga kelishi uchun zamin mavjud edi. Shuning uchun ham nemis faylasufi P.Lafarg "qasos olish prinsipi inson miyasida adolat tushunchasining tug'ilishiga olib keldi, bu tushuncha esa keyinchalik xususiy ko'chmas mulkning asosi bo'lmish yer taqsimotini paydo qildi", – degan edi [2].

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, "adolat" kategoriyasining mazmuni konkret-tarixiy xarakterga ega va shuning uchun ijtimoiy tafakkurda unga turlicha ta'rif berildi.

Adolat haqidagi ilk g'oyalar eramizdan avvalgi I ming yillikning ilk asrlarida vujudga kelgan va keyinchalik Eron, Ozarbayjon va Afg'onistonda keng tarqalgan, iudaizm hamda dastlabki xristian dini rivojiga sezilarli ta'sir o'tkazgan zardushtiylik dinida uchraydi. Payg'ambar Zardusht ta'limotida olam ezgulik va yovuzlik, ziyo va zulmat, adolat va adolatsizlik kabi ikki abadiy kuchlarning kurashi sifatida talqin etiladi. Adolat "arta", adolatsizlik esa "druj" tushunchalari orqali ifodalanadi. Artaning g'olib kelishi uchun, deyiladi mazkur ta'limotda, haqiqiy e'tiqod sohibi bo'lmoq va drujning mag'lubiyatiga sabab bo'lguvchi moddiy boyliklarni ko'paytirmoq zarur [3].

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, zardushtiylikda olam adolat va ezgulik

xudosi Axuramazda bilan adalotsizlik va yovuzlik xudosi Ahriman kurashidan iborat deb ta'kidlansa-da, inson bolasining ahamiyati yerga urilmaydi. "Odam bu kurashda oliy kuchlar qo'lidagi o'yinchoq emas, tanlash erkinligiga ega bo'lgan, o'z faolligi bilan dunyoda adolat tantanasiga ta'sir eta oladigan shaxsdir" [4].

Adolat muammosini sistematik tarzda o'rganib chiqishga qo'l urgan dastlabki yunon faylasufi Platon bo'ldi. Uning ijtimoiy-siyosiy konsepsiyasida "adolat" "hukmronlik" va "imtiyoz" tushunchalariga o'xshash kategoriya sifatida ifodalanadi. Platon tenglik va ijtimoiy imtiyozlar dilemmasini hal qilishga urinadi. Uning fikricha, "har bir inson o'zining jamiyatdagi o'rnini bilmog'i, har bir tabaqa faqat o'z ishi bilan shug'ullanmog'i lozim" [5]. Xullas, faylasufning asosiy g'oyasiga ko'ra, har bir tabaqa ichida tenglik bo'lmog'i, tabaqalar orasida esa tengsizlik hukm surmog'i adolatdandir. Platonning ushbu g'oyalarini rivojlantirgan Aristotel tenglashtiruvchi va taqsimlovchi adolat tushunchalarini qo'llay boshladi. Mufakkirning bunday yondashuvi hanuzgacha qiziqish uyg'otadi. Haqiqatan ham, moddiy va ma'naviy boyliklarning teng taqsimlanishi adolatga olib keladimi? Yoki buning uchun ularni inson mehnatiga mutanosib ravishda taqsimlash kerakmi? Agar moddiy va ma'naviy boyliklar teng taqsimlansa, unda mehnat o'z qadrini yo'qotadi, o'ziga xos "kazarma sotsializmiga" ega bo'lamiz. Taqsimlovchi adolat prinsiplariga amal qiladigan bo'lsak, inson mehnatlari qaysi mezonlar asosida o'lchanmog'i lozim, degan savol tug'iladi.

Ko'rinib turibdiki, qadimgi davr mufakkirlarining adolat haqidagi mulohazalari sistemali xarakterga ega emas. Biroq ushbu fikrlarning o'ziyoq adolatning obyektiv fenomen ekanligini, uning darajasi esa jamiyatning rivojlanganligi darajasiga bog'liq ekanligini anglab olish uchun kifoya qiladi.

O'rta asrlar Yevropasida xristian adolati doktrinasini ildiz otdi. Unda ta'kidlanishicha, barcha Xudo oldida tengdir, lekin tabaqalar orasida tengsizlik bo'lishi tabiiy, chunki Xudo hammani bir xilda yaratmaydi. Bu dunyoda emas, narigi dunyodagina adolat to'la g'alaba qozonajagi haqidagi fikrlar asosiy g'oyaga aylandi.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda yashab o'tgan va ijod qilgan mufakkirlar "adolat" kategoriyasini ayniqsa qiziqarli talqin qiladilar. O'z davrida birinchi bo'lib jamiyat va ijtimoiy-siyosiy hayot tarkibini o'rganish muammosini ko'tarib chiqqan Abu Nasr Forobiy qator risolalarida adolat hiqida fikr yuritadi. Uning fikricha, adolat – jamiyat tarkibining mavjud bo'lishi uchun poydevor yaratguvchi kategoriyadir [6]. U har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy munosabatlar sohasidagi huquq va majburiyatlarini aniqlab, mustahkamlab beradi.

Adolat alohida, biror bir kishi yoki guruh yordamida o'rnatilmaydi, u jamoa mehnatining mahsuli bo'ladi. Chunki "har bir kishi o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmog'i uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi" [7]. Adolat fazilatli shaharda fazilatli jamoa yoki fazilatli xalq tomonidan o'rnatiladi. Fazilatli shahar va fazilatli jamoa



deganda nimani tushunmoq kerak? “Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar – fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi fazilatli jamoadir. Baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam bergan ham fazilatli xalqdir” [7].

Buyuk mutafakkirning ta’kidlashicha, baxtga erishishdek oliy maqsadni amalga oshiruvchi vosita – idoradir. Fazilatli shaharni idora qilguvchi hukmdor esa eng axloqli, ya’ni o‘zida 12 tug‘ma xislatni birlashtirgan bo‘lishi lozim. Hukmdor barcha organlari mukammal taraqqiy etgan (sog‘lom), barcha masalani tezdan va to‘g‘ri tushuna oladigan, xotirasi baquvvat, zehni o‘tkir, mulohazalari ravon, har qanday bilimni oson o‘zlashtiradigan, qimordan yiroq, haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan, o‘z vijdonini qadrlaydigan, dinor va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qaraydigan, adolatparvar hamda o‘zbilarmonlik, qaysarlikka berilmagan shaxs bo‘lishi kerak [7]. “Shahar hokimi, ya’ni boshlig‘i, – deb yozadi Forobiy, – shunday idora qilmog‘i lozimki, toki shahar qismlari orasida o‘zaro aloqa va o‘zaro kelishish yuzaga kelsin, kishilar bir-biriga yovuzlikni yo‘qotishda, osoyishtalikka erishishda yordam beradigan bo‘lsin” [6].

Forobiyning fazilatli shahar haqidagi fikrlarida demokratiya g‘oyalari o‘z aksini topgan. Faqat shunday shahardagina, deb uqdiradi u, kishilar ozod hayot kechiradilar. Biroq demokratik idora usulini madaniy taraqqiyotning quyi bosqichlarida bo‘lgan, kamolotga yetmagan, johil shaharlarda qo‘llab bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari // Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Tom 3. - T.: O‘zbekiston, 1996. - 10 b.
2. Лафарг П. Сочинения. - М. -Л.: 1931. Т.3. - С.63.
3. Чориев А. Инсон фалсафаси. Инсон тўғрисидаги фалсафий фикрлар тараққиёти. Биринчи китоб. - Т.: Чинор, 1998. - 14-16 б.
4. Ислом. Справочник // М.А. Усмонов тахрири остида. -Т.: Ўзбек Совет энциклопедияси Бош редакцияси, 1989. - 119 б.
5. Социальная справедливость: пути реализации. Под ред. Шайховой Х.А. - Т.: Фан, 1990. - С.21.
6. Фараби. Социально-этические трактаты. - Алма-Ата: 1975. - С.132-133.
7. Форобий. Фозил шаҳар аҳолиларининг фикрлари // Рисолалар. -Т.: 1975. - 134 б.